

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**“FARG‘ONAAZOT” AKSIYADORLIK JAMIYATIDA MAVJUD QUVVATLARDAN
SAMARALI FOYDALANISH HAMDA ICHKI VA TASHQI BOZORDA TALAB YUQORI
BO‘LGAN MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHNI TA‘MINLASH CHORA-
TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

Kimyo tarmog‘ini yanada rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarishning mavjud quvvatlarini modernizatsiya qilish va yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish hamda korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini tatbiq etish maqsadida:

1. Davlat mulkini sotishda tender savdolarini o‘tkazish bo‘yicha davlat komissiyasining qaroriga asosan “Farg‘onaazot” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda — Jamiyat) ustav kapitalidagi 99,02 foiz aksiyalar paketini xususiylashtirish bo‘yicha tender yakunlari Jamiyat aksiyalar paketini 130 mln AQSh dollari va 107 mlrd so‘mga sotib olish hamda investitsiya kiritish sharti bilan “Indorama Sorporation Pte Ltd” kompaniyasi savdo g‘olibi etib topilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi “Indorama Sorporation Pte Ltd” kompaniyasi bilan investitsiya bitimini imzolasin.

Bunda, Jamiyatning:

ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish loyihasi texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish natijalariga ko‘ra 5 yil muddatda 100 million AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritilishi;

barcha joriy ijtimoiy dasturlar saqlab qolinishi, jumladan xodimlar sonini va ularning mehnatiga to‘lanadigan haq miqdorini qisqartirmaslik, xodimlarning malakasini oshirish, ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv tamoyillari (ESG) joriy qilinishi nazarda tutilsin.

3. Belgilansinki, Jamiyat mahsulotlarni tashqi va ichki bozorga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoxud birja savdolari orqali erkin realizatsiya qiladi.

4. Energetika vazirligi, “UzGasTrade” AJ, “O‘ztransgaz” AJ Jamiyatni xususiylashtirish bo‘yicha oldi-sotdi shartnomasiga muvofiq tabiiy gazni ishlab chiqarish va yetkazib berish imkoniyatidan kelib chiqqan holda Jamiyatni 10 yil davomida mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur hajmlarda tabiiy gaz bilan uzluksiz ta‘minlash choralari ko‘rsin.

5. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va “O‘zkimyosanoat” AJning [1-ilovaga](#) muvofiq xo‘jalik jamiyatlari ustav kapitalidagi Jamiyatga tegishli ulushlarni (aksiya paketlarini) Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga balans (qoldiq) qiymatida beg‘araz berish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga [2-ilovaga](#) muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori A.J. Ortikov belgilansin.

Qaror ijrosini ta‘minlash uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2023-yil 27-iyul,
PQ-242-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PQ-242-son [qaroriga](#)
1-ILOVA

**Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga balans (qoldiq) qiymatida beg'araz beriladigan
xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalidagi "Farg'onaazot" AJga tegishli ulush (aksiya paketlari)**

RO'YXATI

T/r	STIR	Nomi	THSh	Hudud	Ulush yoki aksiya paketi (foizda)
1.	302623299	"Kimyogar yoshlar madaniyat bog'i"	MChJ	Farg'ona viloyati	100,0
2.	202360550	"Kimyosavdota'minot"	MChJ	Toshkent shahri	8,34
3.	305048781	"O'zkimyoimpeks"*	MChJ	Toshkent shahri	0,58
4.	306921130	"RKTUning Toshkent shahridagi filiali qurilishi direksiyasi"*	MChJ	Toshkent shahri	25,05
5.	308301085	"Farmatsevtik PVX"*	MChJ	Namangan viloyati	100,0
6.	309013332	"Fargonamelamine"	MChJ	Farg'ona viloyati	26,0
7.	200000097	"Elektrokimyozavod"	AJ	Navoiy viloyati	0,28
8.	200547792	"Mikrokreditbank"	ATB	Toshkent shahri	0,002
9.	200833707	"O'zsanoatqurilishbank"	ATB	Toshkent shahri	0,08
10.	303724021	"O'zsanoateksport"	AJ	Toshkent shahri	1,53
11.	200138906	Marg'ilon shahar "Dehqon bozori"	AJ	Farg'ona viloyati	22,93

* "O'zkimyosanoat" AJ ustav kapitalidagi davlat ulushini balans (qoldiq) qiymatiga oshirish hisobiga "O'zkimyosanoat" AJga o'tkazib beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PQ-242-son qaroriga
2-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatning ayrim
hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-avgustdagi "Kimyo sanoati tashkilotlarining eksport-import faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3246-son qaroriga **1-ilovaning** 3-pozitsiyasi chiqarib tashlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4805-son qaroriga **4-ilovaning** 1 — 7-pozitsiyalari "Ishlab chiqarish tarmoqlari" ustunidagi "Farg'onaazot" AJ" so'zlari chiqarib tashlansin.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2021 — 2023-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4937-son **qarorida**:

6-ilovaning 42-pozitsiyasi chiqarib tashlansin;

7-ilovaning 25 va 26-pozitsiyalari chiqarib tashlansin.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyuldagi PQ-5171-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonlari alohida tartibda nazorat qilinadigan ayrim korporativ va budget buyurtmachilari **ro'yxatining** 7-pozitsiyasi chiqarib tashlansin.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi "Tabiiy gaz bozorini isloh qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-280-son qarorining **7-bandi** o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2023 — 2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-459-son **qarorida**:

- a) 3-ilovaning 78-pozitsiyasi, 5-ilovaning 37-pozitsiyasi va 7-ilovaning 41-pozitsiyasi chiqarib tashlansin;
- b) 9-ilova quyidagi mazmundagi 47¹-pozitsiya bilan to'ldirilsin:

“

47 ¹ .	Melamin ishlab chiqarishni tashkil etish	Fargʻona viloyati	60 ming t	“Tropidia holding b.v.” (Niderlandiya)	200,0
-------------------	--	-------------------	-----------	--	-------

”.

7. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-martdagi 107-son qarori bilan tasdiqlangan Tashqi qarzlarni jalb qilish, ulardan foydalanish va ularning miqdorini maqbullashtirish ustidan nazorat qilinadigan davlat ishtirokidagi korxonalar ro'yxatida:

- a) 19-pozitsiya chiqarib tashlansin;
- b) izoh qismida:
 ikkinchi xatboshi chiqarib tashlansin;
 uchinchi xatboshi ikkinchi xatboshi deb hisoblansin.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.08.2023-y., 07/23/242/0556-son)